

## **MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**Mirzayeva Muniraxin Rahimjonovna**

Farg'ona viloyati Beshariq tumani 47-maktab Matematika fan o'qituvchisi

**Mamajonova Zuxraxon Salimjonovna**

Farg'ona viloyati Beshariq tumani 47-maktab Matematika fan o'qituvchisi

*Annotatsiya: Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy-ijtimoiy, texnik- texnologik sohalar islohatlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bu esa ta'lismarlijarayonlarining pedagogik texnologiyalar asosida o'tkazish, erkin shaxsni tarbiyalashdan iborat. Lekin bu jarayon oson kechmaydi. Bugun ixtiyoriy tarzda qurilayotgan va amaliyotga tadbiq etilayotgan o'qitish tizimini qat'yan ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish lozim. Ushbu jarayonni umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhi bilan sug'orish, mazmunini takomillashtirish, tuzish ijodkor o'qituvchilar oldida turgan dolzarb vazifa ekanligi haqida so'z boradi*

O'zbekiston Respublikasi Ta'lismarlijarayon qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lismarlijaning sifat va samaradorligini ko'tarish maqsadida ta'lismarlijarayon qangilash yosh avlodni aqliy intelektual rivojlanishini ta'larning yangi modelini ilmiy-pedagogik jihatdan ta'minlangan holda muntazam takomillashtirib boorish yetakchi vazifa qilib qo'yilgan. Bu borada DTS da majburiy minimal daraja belgilab berildi. Har bir o'qituvchisi DTS da ko'rsatilgan majburiy minimal talablarga javob beraolsin. Ana shularga tayangan holda o'qituvchi izlanuvchanlik bilan o'quvchilarga ijodiylilik matematika faniga bo'lgan hissini uyg'ota bilishi zarur. Darslarda o'quvchilarni mustaqil fikrlashlariga turli uslublaridan foydalanib erishishimiz zarur. O'qituvchi o'qituvchida "Menga matematika zarur, uni bilish, hayotda qo'llashning uddasidan chiqishim kerak"-degan intilishni uyg'otsin. Pedagogik texnologiyalarning bugungi kunda eng ommaviy lashgan turlaridan biri bu – interfaol metodlardir. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'qituvchining birligida faoliyati bo'lib, asosan o'quvchilarni fikrlashga undaydi. Kerakli xulosalarga kelishni, ular o'zini tahlil qilishni va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. O'qituvchining asosiy vazifasi bu erda o'quvchilarga yo'l ko'rsatish, yo'nalish berish, eng to'g'ri xulosani aytishdan iborat. Interfaol usullar yana shunisi bilan ham ahamiyatlici, o'qituvchi o'qituvchining fikrini hech qachon keskin rad etmaydi, faqatgina vaqt bilan to'g'ri xulosani aytib o'tib ketadi. Natijada o'qituvchi xatosini o'zi tushunib oladi. Bu esa ularni tushkunlikka tushish, fikrlashda tormozlanish kabi holatlarning oldini oladi. Interfaol metodlar o'qituvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslanadi. O'qituvchi qanday bo'lmasin o'qituvchining fikrini tinglaydi va hurmat bilan qarashini bildiradi, shu bilan birga o'quvchilarni bir-birlarini tinglashga o'rgatadi. E'tirozlar, qo'shimchalar ham "hurmatli", "sizning fikringizga qo'shilgan holda", "bizning ham ayrim fikrlarimiz bor edi" kabi so'zlar orqali bildiriladi. Bunday tarzda tashkil etilgan darsda o'qituvchi o'zini hurmat qilinayotganligini sezadi va bunday sharoitda hech qanday tayziqsiz erkin fikrlay boshlaydi va uni ochiq bayon eta oladi. Ushbular bilan birligida u boshqalarni ham hurmat qilishga o'rganadi. Interfaol metodlar o'qituvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi. O'qituvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror-bir muammo bilan band bo'ladir. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi.

Ta'lismarlijarayoni bevosita o'qitish metodi bilan uzviy bog'liqdir. Metodika sizning qanday texnik vosita yoki kitoblardan foydalanayotganingiz emas, balki sizning ta'limingiz qanday tashkil etilishidadir. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodi ta'lismarlijarayoni va

o'qituvchining o'qitish jarayonidagi o'zaro aloqa shaklidir. O'qituvchi va o'quvchi orasidagi jarayon aslida o'quvchini u yoki bu bilim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish maqsadida bog'lab turganligini ko'rsatib turadi. Metodlardan farqli o'laroq, o'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta`lim tizimining eng muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri bo'lib e'tirof etilmoqda. Chunki bu o'zgaruvchan bozor iqtisodiyoti sharoitida faqatgina mustaqil fikrlash qibiliyatiga ega bo'lgan shaxsgina o'z muammolarini o'zi mustaqil hal qila oladi. O'zi uchun ham oila uchun ham foydali bo'lib hisoblanadi, hamma jamiyatda o'z o'z mavqyeiga ega bo'ladi. Bunday qobiliyat albatta dastlab oilada, keyinchalik esa ta`lim muassasalarida shakllanadi. Ammo bilim o'z yo'liga mustaqil fikrlash ham katta boylik."Pedagogik adabiyotlarda ta'kidlanganidek o'quvchiarning bilish jarayonidagi faolligini oshiruvchi va ularning fikrlash qibiliyatini rivojlantiruvchi metod interfaol metod deb ataladi. O'qitishning interfaol metodi ikki ko'rinishda o'zini namoyon qiladi.

1. O'quvchilarning o'quv materialini kompyuter yordamida mustaqil o'zlashtirishni ta`minlash. Bunda o'quvchi kompyuterda tovush, animatsiya va boshqa imkoniyatlaridan (interfaol muhit) keng foydalangan holda o'qituvchi dastur bo'yicha o'quv materialini mustaqil o'zlashtiradi. U internet tarmog'idan ham kerakli axborotni olib o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

2. O'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini ularning jonli muloqotini faollashtirish. Bunda odatdagi o'qituvchi monologini mumkin qadar kamaytirib, o'quvchilarni mustaqil ijodiy fikrlash qibiliyatini rivojlantiruvchi strategiyalardan foydalanish, o'qituvchining mashg'uoltagi hukmronligidan voz kechib, uni o'quvchiarning mustaqil o'zlashtirishlariga yordam va maslahat beruvchi, ularga mustaqil faoliyat uchun sharoit yaratuvchi maqsadga yo'llovchi shaxs bo'lishga erishishi nazarda tutiladi. Chunki ilmiy-tadqiqotlarda ta'kidlanganidek,

Mustaqil bilish faoliyati ijodiy tafakkurni rivojlantirishni asosi bo'lib hisoblanadi. Biroq boshqa fanlardan o'laroq ,matematika darslarida yangi mavzuni bayon qilish albatta o'qituvchiga tushadi. Bugungi kun talabidan kelib chiqib, mavzuni tushunarli hayotiy misollar orqali yoritib o'quvchilarga yetkazish har bir matematika o'qituvchisidan kuchli bilim va mahorat talab etadi. Darslarda o'qituvchi turli interfaol o'yinlardan ham foydalanish mumkin.

O'yin uchun :Shaxs sifatida o'z-o' zini rivojlantirish kompetensiyasi (shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellectual kamolotga intilish; hayot davomida o'qib-o'rganish , bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish; o'z hatti-harakatini va baholash, o'zini nazorat qila bilish,halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish; o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.Kompetensiyasini shakllantirish uchun "Xokkey" (o'yini) treningi tanlansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Trening maqsadi:

- O'quvchilarni o'yin elementi orqali savol tuzishga,savollarga javob berishga , ularda mustaqil fikrlash , o'z fikrini mustaqil , mantiqan og'zaki bayon qila olish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilar dunyo qarashni kengaytirish, turli mavzulardagi bilimlarini kengaytirish, notiqlik san'ati elementlari bilan tanishtirish, yakka guruhda ishlashga imkoniyat yaratish.

- do'stona munosabatni va ijodiy muhitni yuzaga keltirish
- o'rtasidagi ruhiy to'siqlarni yengishga o'rgatish.

Treningdan kutilgan natija:

O'quvchilar turli mavzulardagi axborotlar bilan tanishadilar, savol tuzish va javob berishga o'rganadilar, o'z fikrlarini bayon etishga, ko'p axborot, ma'lumotlardan xabardor bo'lish

kerakligini tushunadilar, mustaqil ravishda savollar tuzish yoki ularni topishga qiziqish uyg'otadi. Bunda axborot bilan ishslash va ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyalari shakllana boradi, ya'ni o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioya qilishga erishiladi. Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Mashg'ulot boshida o'quvchilar stol ustiga qo'yilgan rasm yoki sonlar tanlovi asosida 4 ta guruhga ajraladi. 2 ta guruh 6 kishidan iborat, qolganlari tengikkiga bo'linadi ishqibozlar, 6 kishilik guruh sport jamoasi sifatida rollarga bo'linadi. 3 kishi – "markaziy hujumchi", 2 kishi – "himoyachi", 1 kishi – "darvozabon". Bu jamoa qarshisiga xuddi shu tartibda ikkinchi jamoa joylashadi. Qolgan 2 ta guruh ishqibozlar hisoblanadi.

Jamoalar bir-birlariga bugungi mavzu bo'yicha ajratilgan vaqt davomida 3 tadan savol, ishqibozlar esa "raqib" jamoa a'zolariga bittadan savol tayyorlaydilar. Savollar tayyor bo'lgach o'yin boshlangani haqida bong uriladi. Jamoalar qo'liga kichik koptok beriladi, o'yin davomida o'yinchilar qo'lidan- qo'liga o'tib boriladi. O'qituvchi "hakam" roilda bo'ladi.

O'yin boshlangach berilgan savolga birinchi markaziy hujumchilar 3 daqiqa ichida javob beradi, javob berilsa g'oliblik ularga beriladi. Agar berilmasa markaziy hujumchilarga so'z beriladi. 2 daqiqa ichida javob berilsa g'oliblik ularga beriladi. Agar javob berilmasa darvozabon 1 daqiqa ichida jamoasini qutqarishi kerak. Durang holatda ishqibozlar "raqib" jamoa a'zolariga bitta (yoki ikkita...) dan savol berib, hisobni o'zgartiradilar.

Har bir topshiriq bajarilgandan so'ng o'quvchi rag'batlantirib boriladi. Ruhlantirib boorish uchun, ballar doskada e'lon qilib boriladi.

Xulosa. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, darslarni interfaol metodlardan foydalananib tashkil etish, bugungi kunning talabi bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga, o'quvchilarni darsga qiziqtirishga, mustaqil fikr uyg'otishga, ijodkorlik yaratuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga to'la to'kis asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi "qonuni," Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 6-9 sinflari uchun darslik. Toshkent, O'qituvchi .Xolmuhammedov O.P.Mirzaahmedov M
3. Matematika o'qitish metodikasi
4. "Qiziqarli matematika " kitobi
5. "Interfaol metodlar" o'quv –uslubiy qo'llanma